

HAMSHIRALIK ISHI BIOETIKASI VA DEONTOLOGIYASI

Raxmonova Xakimaxon

*Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi tibbiyat texnikumio'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hamshiralik ishi bioetikasi va deontologiyasi taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ilmiy asos, jelatina, epidemiya, ijtimoiy, psixologik, model.

Bioetika zamonaviy tibbiyotning muammoli masalalarini bur qancha yo'nalishda o'rghanadi. Bioetika zamonaviy ilmiy tekshirishlarning fanlararo bog'langan sohasidir. Bioetika yo'nalishlariga insonparvarlik, inson shaxsini fazilatlarini hurmat qilish, shaxsni axloq va odobini hurmat qilish, ezzgulik va yaxshilik xususiyati, haqgo'ylik kiradi.

Hozirgi zamon biotibbiyot etikasi negizida bemor va tibbiy xodimlar o'zaro munosabatlarining bir qancha modellari aniqlangan.

Hamshiralik etikasi «etika» so'zi yunoncha aethos – degan so'zdan olingan bo'lib, u yurish – turish, odob axloq degan ma'noni anglatadi.

Axloq deganda kishilarning bir biriga munosabati, e'tiqodi, tarbiyasi, xulq atvor normalari yig'indisi tushuniladi.

Tibbiyot hamshirasi o'zining yurish turishi bilan vrach nufuz e'tiborini mustahkamlab bormog'i lozim. Hamshira vrach qabulida ishtirok etar ekan, vrachning bemor bilan nimalar haqida gaplashayotganini eshitib turadi va bemorni parvarishlayotgan vaqtin unda vrachning so'ziga, buyurilgan davoning naf berishiga ishonch tug'diradi, sog'ayishiga umid uyg'otadi.

Davlatimiz tibbiyot hodimlariga fuqorolarning sihat salomatligi va hayoti haqidagi g'amxo'rlik qilishni topshirgan ekan, tibbiyot hodimlari halol, yuksak ma'suliyat hissi bilan qarashlari va burchlarini bajarishlari lozim.

Hamshira deontologiyasi bu hamshira etikasining bir qismi bo'lib, u hamshiraning patsient va jamiyat oldidagi kasbiy burchidir.

Tibbiy hamshirada mutaxassis sifatida o'tkir ko'zli, faxm-farosatli kuzatuvchi bo'lmog'i lozim. U bemordagi barcha mayda-chuyda, ruxiy va jismoniy o'zgarish holatlarini bilish va baholashi lozim. U o'z o'zini har tomonlama idora qila olishi, xis-tuyg'ularini boshqara bilish kerak.

Tibbiy hamshiraning o'zini tutish madaniyati 2 turga bo'linadi.

1. Ichki madaniyat: Bunga mehnatga, tartib intizomga, atrofdagi turli vositalarga bo'lган munosabati, axloqi, do'stona, g'amxo'rlik darajasi va birdamlik tuyg'ulari kiradi.

2. Tashqi madaniyat: hamshiraning tashqi qiyofasi, kiyinishi, o'zini tutishi, muomalasi, so'zlash madaniyati va patsientda qoldirgan ilk ijobiy ta'suroti kiradi.

Hamshiralik etika va deontologiyasini Florens Naytingeyl tasvirlagan quyidagi asosiy prinsiplari mavjud:

1. Insoniylik, mexr-oqibatlik, g'amxo'rlik, muruvvatlilik, muhabbat, sofko'ngillik.
2. Qayg'uga sherik bo'lish.
3. Rahmdil.
4. Be'minnat.
5. Ishchanlik, mexnatsevarlik.
6. E'tiborlik.

«Bioetika» yoki hayot etikasi tushunchasini 1969 - yilda V.R.Potter tomonidan kiritilgan. Bioetikaning o'rGANishi predmeti – insonlar o'rtasidagi munosabatlar tushunchasini ifodalaydi. Tibbiyot va etika o'rtasida ming yillardan beri aloqa mavjuddir.

Tibbiyot etikasiga barcha tibbiyot hodimlari rioya qilishlari lozim. Etika kategoriyalari quyidagilar: Majburiyat, burch, qadriyat, vijdon, baxt, omad.

Kasbiy sir - yetik nuqtai nazardan birinchidan: bemorga nisbatan hurmat, insoniy fazilatlarni ulug'lash qonuniy huquqlarni himoyalash; ikkinchidan: hayot faoliyati davomida o'zlariga zarar yetkazmaslik va bemor tuzalishida muvaffaqiyatlarga erishish bo'lib hisoblanadi. Agar tibbiy hodim kasbiy sirni saqlay olsa bemorning sog'ligiga naf keltirishi mumkin.

Baxtga qarshi kasbiy sirni saqlay bilmaslik tibbiy xodimlar faoliyatida ko'p uchraydi. Buning oldini olish maqsadida bilim olish davomida talabalarni axloq-odob me'yorlari bemor bilan o'zaro munosabat, kasbiy sirni saqlay bilishlikka o'rgatish lozim. Kasbiy sirni saklash muammosi etnik muammo bo'libgina qolmay huquqiy muammo hamdir.

Tibbiyot hodimlarining hatti-xarakatlari va gap –so'zlarining yoki bemorga qilingan boshqa salbiy ta'sirdan kelib chiqadigan xastalikdir.

Yatrogen kasallikkarni kelib chiqishida sabab bo'ladigan 4 ta asosiy omil:

1. Bemorning anamnezini yig'ish
2. Bemorning ichki xolatini o'rGANISH
3. Laborator taxliliga baxo berish
4. Tashxis va kasallik oqibatini aniqlash

Tibbiyot xamshirasi muloqot chog'ida bemorning oldin kechirgan kasallikklariga xam katta axamiyat berishi, ayniqsa xavfli o'sma, yurak kasallikkari va ruxiy kasallikkari mavjud bo'lgan bemorlarga nisbatan nixoyatda extiyotkorlik va muloyimlik bilan muomala qilish talab etiladi.

Ingliz faylasufi Frencis Bekon yengil, og'riqsiz o'lim termini – "Evtanaziya", grek tilidan euthanasia, eu – yaxshi, thanatos – o'lim terminini kiritdi, ya'ni yaxshi, tinch va yengil, og'riqlarsiz, azoblanishlarsiz o'limni anglatuvchi so'zni kiritdi. Hozirgi zamonaviy publistik tilda ikkita termin ishlataladi: "Evtanaziya" va "Eytanaziya". Evtanaziya tushunchasi manfaatli o'lish deb tarjima qilinadi. O'z-o'zidan manfaatli o'lim va uni amalga oshirilishini anglatadi.

Evtanaziyada hohishga ko'ra o'lim va inson roziligidiz majburiy o'lim farqlanadi.

Evtanaziya quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

1. Shaxsning o'limini tugatish yoki uni o'lishini tezlashtirish maqsadida.

2. Og'ir kasallikning oxirgi stadiyasida, bosqichida bo'lgan bemorlarni qiynoqlardan xalos etish maqsadida ularga bilvosita o'lim jarayonini tezlashtirish maqsadida ularga medikamentlar qo'llanganda evtanaziyani nazarda tutish mumkin.

Bugungi kunda evtanaziya xaqida turli qarama-qarshi fikrlar mavjud. Evtanaziya tarafdorlari bu so'zni — «yoqimli, yengil o'lim» deb baxolasalar, bunga qarshi bo'lgan davlatlar tibbiyotdagi Gippokrat qasamyodiga to'g'ri kelmaydigan qotillik sifatida izoxlaydilar. Bundan tashqari evtanaziyani shifokor yoki xamshira o'tkazishga ma'nан tayyormi va xaqlimi? Transplantatsiya maqsadida evtanaziyadan foydalanmaslikka kim kafolat bera oladi? Xozirda faqat Gollandiya (Nederland) dunyo buyicha «Evtanaziyani» mamlakat miqyosida rasman qonunlashtirgan davlat xisoblanadi. Bu juda qaltis va nozik muammo bulib, shifokor deontologiyasi nuqtai nazaridan boshqa davlatlarning tajribasini, tibbiyot an'analarini bemorlar va ularning qarindosh-urug'lari, yaqinlari munosabatini, psixologiyasini, jamoatchilik fikrini o'rganishni taqozo etadi.

Hamshiraning o'lim bilan kurashayotganlar oldida bo'shashishga, o'zini yo'qotib qo'yishiga, qayg'uga berilishga haqqi yo'q. U xar daqiqada kimgadir kerak bo'lishi, yoki bundan qo'rqinchiliroq holat ro'y berishi mumkinligini hamisha his qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.I.Shukurov, S.Q.Qanotov. Jamoada hamshiralik ishi. Toshkent - 2010. – 248b.
2. K.U. Zakirova, D.U. Toxtamatova Hamshiralik ishi asoslari. Toshkent – 2010. – 78b.
3. Gadaev A., Salihodjaeva R.K., Rahmonov N.Sh. Hamshiralalar faoliyatida profilaktika. T. 2012.-160b.
4. НУРАЛИЕВА, Д. THE IMPORTANCE OF FAMILY RELATIONS IN THE FORMATION OF CHILD PERSONALITY. UNIVERSITETI XABARLARI, 2019,[1/1] ISSN 2181-7324.
5. Nuraliyeva, D. M. (2021). PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO FAMILIES ON THE VERGE OF DIVORCE. Экономика и социум, (10 (89)), 186-189.
6. Mamurjonovna, N. D. (2022). NIKOH OLDI OMILLARI VA OILA QURISH MOTIVLARINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYALARI: Nuralieva Dildora Mamurjonovna Farg 'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasи psixologiya fanlari bo'yicha falsafa dokori (PhD). Asqarova Odinaxan Mamatxonovna Psixologiya magistratura yo'nalishi 2-kurs talabasi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (12), 312-316.
7. Нуралиева, Д. М. (2022). OILALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO 'RSATISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: Нуралиева Дилдора Мамуржоновна ФарДУ психология фанлари бўйича фалсафа доктори,(PhD). Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (11), 370-377.
8. Mamurjonovna, N. D. (2022). O'SPIRINLARDA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANISHIDA OILA MUXITINI TUTGAN O'RNI: Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna FarDU psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD) Kenjayeva Dilnozaxon Sadirdinovna

Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) 2-kurs magistranti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (12), 293-298.

9. Axrorov, P. Q., & Nuraliyeva, D. M. (2022). AMERIKA PSIXOLOGIYA MAKTABI NAMOYONDALARINING ZAMONAVIY TADQIQOTLARINING OZIGA XOS JIHATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 59-61.

10. Mamurjonovna, N. D., & Ergashova, Z. (2022). SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE CRIMINAL PERSONALITY. World Bulletin of Social Sciences, 16, 140-143.

11. Mamuroonovna, N. D., & Abdulloh, X. (2022). PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF CRIME IN ADOLESCENCE. Uzbek Scholar Journal, 10, 550-554.

12. Mamurjonovna, N. D. (2023). EMPIRICAL STUDY OF ETHNIC IDENTITY IN PERSONS BORN IN HETERO-NATIONAL FAMILIES. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 555-558.

13. Ma, N. D. M. M. M. (2023). TEACHING INFORMATION ANALYSIS BY DEVELOPING CREATIVE THINKING IN CHILDREN. Conferencea, 6(6), 213-222.

Nuralieva, D. (2023). SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ETHNIC IDENTITY IN PERSONS BORN IN HETERO-ETHNIC FAMILIES. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 3(9), 79-82.

16. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.

17. Siddikov, B. S. (2023). MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 39-42.

18. MAZMUNI, T. M. A. J. V. Sh. N. Mexmonaliyev–Farg ‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti SS Evatov–Farg ‘ona davlat universiteti o’qituvchisi OA Tursunov–Farg ‘ona politexnika instituti akademik litsey o’quvchisi. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 275.